



UDK:5801(110.4)

Baxtiyor SAFAROV,
O'zbekiston FA, Tarix instituti mustaqil izlanuvchisi
E-mail Baxtiyor_Safarov@mail.ru

Tarix fanlari doktori Dsc, professor O.Rashidov taqrizi asosida

TURKISTON MUXTORIYATINING TASHKIL TOPISHI VA SO'L ESER, BOLSHEVIK VA MENSHEVIKLARNING MUXTORIYATGA NISBATAN SIYOSIY POZITSIYASI

Аннотация

Ushbu maqolada 1917–1918-yillarda Turkiston o'lkasida kechgan siyosiy jarayonlar, Turkiston Muxtoriyatining tashkil topishi, unga o'lkada faoliyat ko'rsatayotgan mavjud bolsheviklar, eserlar, mensheviklar partiyalarining munosabatlari hamda Turkiston muxtoriyatining tugatilishi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Muxtoriyat, bolsheviklar, mensheviklar, so'l eserlar (sotsialist-revolyusionerlar), Sho'roi islom, Sho'roi ulamo, Xalq komissarlari soveti.

ОБРАЗОВАНИЕ ТУРКЕСТАНСКОЙ АВТОНОМИИ И ПОЛИТИЧЕСКАЯ ПОЗИЦИЯ ЛЕВЫХ ЭСЕРОВ, БОЛЬШЕВИКОВ И МЕНШЕВИКОВ ПО ОТНОШЕНИЮ К АВТОНОМИИ

Аннотация

В статье рассматриваются политические процессы, происходившие в Туркестанском крае в 1917–1918 годах, создание Туркестанской автономии, отношение к ней действующих в крае большевистской, эсеровской и меньшевистской партий, а также ликвидация Туркестанской автономии.

Ключевые слова: Автономия, большевики, меньшевики, левые эсеры (социалисты-революционеры), Шурои Ислам, Шурои Улама, Совет народных комиссаров.

THE FORMATION OF THE TURKESTAN AUTONOMY AND THE POLITICAL POSITION OF THE LEFT SOCIALIST REVOLUTIONARIES, BOLSHEVIKS, AND MENSHEVIKS TOWARD THE AUTONOMY

Annotation

The article examines the political processes that unfolded in Turkestan during 1917–1918, focusing on the establishment of the Turkestan Autonomy, the responses of the existing Bolshevik, Socialist Revolutionary (SR), and Menshevik parties operating in the region, as well as the subsequent abolition of the Turkestan Autonomy.

Key words: Autonomy, Bolsheviks, Mensheviks, Left Socialist-Revolutionaries (Left SRs), Shuro-i Islam, Shuro-i Ulama, Council of People's Commissars.

Kirish. Bundan 107 yil muqaddam, 1918-yil 19-fevral kuni Markaziy Osiyoda tuzilgan birinchi demokratik davlat - Turkiston muxtoriyati bolsheviklar tomonidan qonga bostiriladi. Shundan so'ng bir necha kun Qo'qon va uning atrofidagi hududlarda bolsheviklar va arman dashnoqlari tomonidan «tozalash» o'tkaziladi va ko'plab odamlar qirib yuboriladi.

Chor rossiyasida Nikolay II taxtdan ag'darilib, hokimiyat muvaqqat hukumat ixtiyoriga o'tganidan so'ng Turkiston o'lkasida ham turli siyosiy harakatlar faollashadi. Ular qatorida xalq orasida ta'sir doirasi eng katta bo'lganlari "Sho'roi islom" va "Sho'roi ulamo" harakatlari edi. Bu ikki harakat ham Nikolay II taxtdan quvilgandan so'ng tashkil etilgandi.

1917-yil oktyabr oyida bolsheviklar Rossiyada davlat to'ntarishi uyushtirishadi. Muvaqqat hukumatni ag'darib tashlab, hokimiyatni o'z qo'llariga olishadi. Turkistonning turli shaharlarida, jumladan, o'lkaning siyosiy poytaxtiga aylanib ulgurgan Toshkentda ijtimoiy-siyosiy harakatlar kuchayadi. "Sho'roi islom" va "Sho'roi ulamo" harakatlari Turkistonda milliy davlatchilikni tashkil etish uchun yig'inlar uyushtira boshlaydi. Biroq bolsheviklar Rossiyaning chekka hududlarida joylashgan erlarini shunchaki berib qo'yimoqchi emasdi. SHu sababli Toshkentda hokimiyatni temiryo'l ishchisi Kolesov boshchiligidagi Turkiston ishchi-dehqon soveti egallab oladi va Turkiston xalq komissarlari sovetini tuzadi. Bu tashkilot tarkibida birorta ham mahalliy millat vakili yo'q edi. SHundan so'ng Turkistonda milliy davlatchilik tuzish istagida bo'lgan

harakatlar kuchli bosim ostida qoladi va qarorgohlarini Qo'qonga ko'chirishga majbur bo'ldi.

1917-yil 26-noyabrdan Qo'qon shahrida O'lka musulmonlarining IV favqulodda s'ezdi ish boshladi. Unda o'lkaning barcha mintaqalari va ko'pgina jamoat tashkilotlaridan 200 dan ortiq vakil ishtirok etdi. 28-noyabrda tashkil topayotgan davlatning nomi aniqlanib "Turkiston muxtoriyati" deb ataladigan bo'ldi. Butunrossiya Ta'sis s'ezdi chaqirilgunga qadar hokimiyat to'la ravishda Turkiston Muvaqqat Kengashi va Turkiston Xalq (Milliy) Majlisi qo'lida bo'lishi haqida qaror qabul qilindi. Muvaqqat kengash a'zolaridan 12 kishilik hukumat tuziladigan bo'ldi. Qurultoy jarayonida Turkiston Milliy Majlisi 54 kishidan iborat qilib saylandi. Turkiston Muxtoriyati va Turkiston Xalq Majlisi delegatlar tomonidan saylandi. Saylov ochiq va teng imkoniyatlar asosida amalga oshirildi.

Qurultoyda Turkiston Muvaqqat Kengashi a'zolaridan Turkiston muxtoriyati hukumati (8 kishidan iborat) tuzildi. Evropalik aholi vakillari orasidan nomzodlar ko'rsatilishi uchun ularga ham yana 4 o'rin ajratildi. Hukumat tarkibiga Muhammadjon Tinishboev (Bosh vazir va ichki ishlar vaziri), Islom Shoahmedov (Bosh vazir o'rinbosari), Mustafo Cho'qay (tashqi ishlar vaziri), Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jaev (harbiy vazir), Hidoyatbek Agaev (er va suv boyliklari vaziri), Obidjon Maxmudov (ozuq-ovqat vaziri), Abdurahmon O'razaev (ichki ishlar vazirining o'rinbosari), Solomon Gersfeld (moliya vaziri) kiritildi.

Keyinchalik hukumat tarkibida ayrim o'zgarishlar yuz berdi. M. Tinisboev Alash o'rda Muxtoriyati faoliyatida qatnashish uchun Orenburgga jo'nab ketgach (1917 yil), Mustafo Cho'qay Bosh vazir lavozimini bajarishga kirishdi. SHOahmedov moliya vaziri (S. Gersfeld o'rniga), Potelyaxov oziq-ovqat vaziri (O. Mahmudov o'rniga), O. Mahmudov adliya vaziri, Nosirxon To'ra maorif vaziri, Saidnosir Mirjalilov hukumat xazinachisi lavozimlarini egallashdi. Savodsiz bolshevik komissarlardan farqli ravishda hukumat a'zolari chuqur ma'lumotli taraqqiyparvar ziyolilar bo'lib, ulardan 5 nafari huquqshunos edi. Turkiston Millat Majlisi 54 nafar (36 musulmon, 18 evropalik) a'zodan iborat bo'lishi kerakligi belgilandi. Qurultoy jarayonida 32 kishidan iborat Millat Majlisi saylandi.

Turkiston Millat Majlisi tomonidan tasdiqlangan qonunlar tez orada e'lon qilindi, shuningdek, yangi hukumat mamlakat Konstitutsiyasini tayyorlash uchun taniqli huquqshunoslarni jalb qildi. 1917-yil 26 dekabrda Turkiston muxtoriyatining Milliy bayrog'i qabul qilindi. "El bayrog'i", "Birlik tug'i", "Svobodno'y Turkestan", "Izvestiya Vremennogo Pravitelstva Avtonomnogo Turkestana" kabi hukumat gazetalar o'zbek, qozoq, rus tillarida nashr qilina boshlandi. Avval chiqayotgan "Ulug' Turkiston" va "Hurriyat" gazetalar ham o'z sahifalarida muxtoriyat hukumati faoliyatiga alohida o'rin ajrata boshladi. Nashr ishlarini yaxshilash uchun O. Mahmudovning bosmaxonasi hukumat ixtiyoriga o'tdi. Turkiston muxtoriyati milliy qo'shinni tashkil qilishga kirishdi. 1918 yil boshida ularning soni 2000 askarga etdi. Bundan tashqari Qo'qonda taxminan shuncha mirshablar bor edi. Hukumat iqtisodiy sohada 30 mln. so'm miqdorida ichki zayom chiqarishni yo'lga qo'ydi. SHuningdek, hukumat a'zolari ochlik changalida qolgan Turkiston aholisiga Orenburg orqali g'alla keltirish muammosini hal qilish uchun amaliy qadamlar tashlagan. Turkiston muxtoriyati hukumati qisqa muddat ichida xalq o'rtasida katta e'tibor qozondi. Yangi hukumat faoliyati butun Turkiston mintaqasida yashayotgan tub erli xalqlar tomonidan qizg'in qo'llab-quvvatlandi.

1917-yil 1-dekabrda Namangan uezdida 100000 ga yaqin kishi qatnashgan katta namoyish bo'ldi. O'sha davrda chiqqan gazetalarning yozishicha, namoyish qatnashchilarining bayroqlarida "Yashasin Muxtoriyatli Turkiston va uning hukumati!" deb yozilgan so'zlar hilpirab turardi [1]. "Ulug' Turkiston" gazetasining yozishicha, 1917-yil 6-dekabrda Toshkentdagi Jome' masjidida 60000 kishi ishtirok qilgan miting o'tkaziladi. Namoyish Saidg'ani Mahdum raisligida o'tadi. Munavvarqori va SHerali Lapin uning muovinlari bo'ladi. Munavvarqori tashabbusi va rahbarligida uyushtirilgan bu miting qatnashchilari Muxtoriyatli Turkiston hukumatini bir ovozdan ma'qulladilar va Turkistonda endi ushbu Muvaqqat hukumatdan boshqa hech qanday hokimiyatni tan olmaslikka qaror qilganliklarini e'lon qildilar. So'ngra namoyish qatnashchilari "Allohu akbar" deya hayqirib, Millat Majlisiga sodiq qolishga qasamyod qildilar [2].

Toshkent shahrida 1917-yilning 13-dekabr kuni ertalab soat 7:00 dan boshlab harbiy holat joriy etildi. Ma'lum bo'lishicha, "Ulamo" musulmon guruhi boshchiligidagi 13-dekabr namoyishi soat 14:00 gacha to'liq xotirjamlik bilan o'tgan. Toshkent shahar atrofi turli shovqin-suronlarga qaramay, shaharning mahalliy qismi nisbatan tinch bo'lgan. Shayxontohur masjidida soat 15:00 dan boshlab Turkiston muxtoriyatini yoqlab fabrik so'zlar aytilgan [3]. Umuman olganda aholining ongli musulmon qismi o'zining birinchi milliy hukumatini, erk va ozodligi uchun tinch namoyishga chiqqan edi.

1917-yilning dekabrda Turkiston o'lkasining hamma joyida ham sovet hokimiyati o'rnatilmagan edi. Farg'ona viloyatida so'l eserlar muxtoriyat masalasini sovetlarning

g'alabasi bilan chambarchas bog'ladilar. 1917-yil 6-7-dekabrda Skobelev shahrida bo'lib o'tgan Farg'ona viloyat askar, ishchi dehqon va musulmon deputatlari sovetlari hamda kasb-hunar tashkilotlari va zavod komitetlari vakillarining s'ezdida sovet hokimiyatiga munosabat va umuman Turkiston muxtoriyatiga, xususan Qo'qonga munosabat to'g'risida ikki muhim masala ko'rib chiqildi [4].

Mensheviklar va so'l eserlar Toshkent va Petrogradga o'rnatilgan sovet hokimiyatining tan olinishiga keskin qarshi chiqdilar. Ular o'jarlik bilan Turkiston muxtoriyati hukumatini butun Turkiston uchun qonuniy hukumat deb tan olinishini talab qildilar [5].

Menshevik Doriomedovning so'zlariga ko'ra, bu avtonomiya Ta'sis majlisiga umumiy ovoz berish yo'li bilan saylanganlardan iborat. Uning hamfikri Danishevskiy ham uni takrorladi: "Barcha hokimiyat Ta'sis majlisiga". Pavlyuchenko, menshevik keyinroq so'l eser, qo'rqib ketgan deputatlar: "Rossiya iqtisodiy jihatdan qoloq mamlakat, shuning uchun kapitalizm (Rossiyada) Epropadagi darajada etgunicha sotsializmga o'tish mumkin emas (siz kutishingiz kerak)" [6].

Deputatlarning hammasi, mensheviklar, so'l eserlar Turkistonda sovet hokimiyatining o'rnatilishiga qarshi kurashdilar va quyidagi fikrga keldilar: Turkiston sharoitlari uchun eng yaxshi kuch Turkiston muxtoriyati. Qolaversa ular mintaqaviy qurultoy deputatlarini sovet hokimiyati xorijiy davlatlar tan olmaydi, deb va shunday xalqaro sharoitda qo'rqitmoqchi bo'ldilar. Sovet hokimiyati ayniqsa Turkistonda shunday vaziyatda tegishli ichki ijtimoiy-iqtisodiy asosga ega bo'lmagan o'z hukmronligini saqlab qola olmaydi.

Bolsheviklar bu tahdid va tazyiqlarga qat'iy qarshilik ko'rsatdilar. Bolshevik Uryupin shunday degan edi: "Muxtoriyatni tan olish kerak, lekin hozir uni kechagina muxtoriyatdan nafratlanagan bir hovuch kapitalistlar boshqaradi. Biz bu to'dani haydab, musulmon demokratiyasi bilan birlashib, o'zimiz unga bosh bo'lishimiz kerak" [7]. Eski Marg'ilon shahridan kelgan delegat bolsheviklar Sugrubov ham Turkiston muxtoriyatini burjua mazmunini fosh qilib shunday dedi: "Biz muxtoriyatni prinsipial jihatdan tan olishimiz kerak, lekin Ta'sis majlisi agar u proletariat manfaatlarini cheklash nuqtasida turgan bo'lsa, u erda uni o'rnatish uchun hech qachon unga vakolat berilmaydi" [8].

Skobelev (Farg'ona) shahar boshlig'i Turkiston muxtoriyati tarafdorlaridan biri bo'lgan menshevik V. Doriomedov ushbu muxtoriyatning paydo bo'lish sabablarini ob'ektiv tushuntirishga harakat qilgan. Gazeta sahifalarida u RSFSR Sovet hukumatini go'yoki «barcha muxtoriyatlarni rad etish»da va mazlum xalqlarga «xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilash» huquqini bermaganlikda aybladi [9]. So'l eserlar va mensheviklar Turkiston muxtoriyatining paydo bo'lishida aybni faqat «barcha muxtoriyatlarni inkor etgan» Turkiston kommunistlariga yuklaydi.

Doriomedov Turkiston muxtoriyatiga o'zining quyidagi munosabatini bildiradi: "Kecha Turkiston Xalq Komissarlar Sovetidan millatlarga o'z taqdirini to'liq mustaqil belgilash huquqini beruvchi telegramma e'lon qilindi. Biz uchun avtonomiya faqat markaziy davlat organining roziligi bilan e'lon qilinishi mumkin. Tashabbuschilar do'stona munosabatda ekan, bu masalaga jiddiy yondashish kerak, ammo beparvo munosabat vaziyatni og'irlashtirishi mumkin. «Burjuaziya» va «proletariat» iborolari hech narsani tushuntirmaydi. Qo'qon qurultoyi umumiy saylov yo'li bilan Ta'sis majlisiga saylangan bir xil kishilardan iborat, ular reaksioner emaslar. Agar kelishuvga erisha olmasak, qirg'in qilinishi mumkin" [10]. Turkiston muxtoriyatini bolsheviklar tomonidan qonga botirilishi u oldindan sezgan hamda o'zining so'zida qirg'in bo'lishi mumkinligini ochiq aytgan edi.

Xulosa. Oktyabr to'ntarilishidan keyin Turkiston milliy etakchilari, ziyolilari boshqaruvni o'z qo'llariga olish olish uchun kurash maydoniga kirdilar. Bu paytda o'lkada bolsheviklarni aholining asosiy qismi qo'llab-quvvatlamas edi. Mintaqada faoliyat yuritayotgan partiyalar, guruhlar, tashkilotlar demokratik respublika shaklidagi milliy davlat tuzilish kabi ulug' maqsadlarga tinch vositalar bilan erishishga intilayotgan edilar. Ammo bolsheviklar o'zlarining siyosiy muxolifatlarini qoralashga, ularning xatolarini ko'paytirishga har tomonlama harakat qildilar. Hatto bo'lmagan joydan faktlarni manipulatsiya qilish, so'zlarni buzib ko'rsatish, ularga tuhmat qilish va ularni omma oldida obro'sizlantirish yo'lini tutdilar. Turkiston mintaqasidagi milliy partiyalar va tashkilotlarni hokimiyatdan siqib chiqarish va o'zlarini mintaqa rahbariga aylantirishga kirishdilar. Turkiston muxtoriyati haqida sovet tarixshunosligida bu hukumat bitta asosiy maqsadni ifodalagani keltiriladi. U ham bo'lsa o'z haq-

huquqlarini talab qilgan milliy etakchilar Turkiston xalqlarini sovet mamlakatining boshqa xalqlariga qarshi qo'yish va islom tamoyillari asosida muxtoriyat tuzganligi hisoblanadi. Turkistondagi rus kommunistlari bu hudud xalqlarining o'z taqdirini o'zi belgilashi davrida ya'ni, milliy muxtoriyatini e'lon qilganida so'l eserlar, mensheviklar va boshqa shu kabi siyosiy partiyalarni burjua yo'lga o'tganlikda hamda Turkiston Muxtoriyatini qo'llab-quvvatlaganlikda ayblanadilar. Aslini olganda ham so'l eserlar va mensheviklar orasidan ba'zi etakchilar chiqib, Turkiston Muxtoriyati erli xalqning milliy huquqi ekanligini tan olish va tushuntirishga harakat qilganlar. Biroq, bolsheviklarning Turkiston Muxtoriyatiga qarshi boshlangan zo'ravonlik kurashida so'l eserlar, mensheviklar va boshqa shu kabi siyosiy partiyalar erli xalqning manfaatlarini himoya qilmadilar yoki ular tomonidan kurashlarda ishtirok etmadilar.

ADABIYOTLAR

1. Ражабов Қ. Ўзбекистон XX асрда. Икки жилдлик. Биринчи жилд (1900 – 1939). – Тошкент: “Фан”, 2024. – Б.237.
2. Ражабов Қ. Ўзбекистон XX асрда. Биринчи жилд (1900 – 1939). – Тошкент: “Фан”, 2024. – Б.237.
3. События в Ташкенте // “Щить народа”. №162, 19 декабря 1917 года.
4. Отношение к автономии Туркестана // «Щит народа», №162, 19 декабря 1917 г.
5. Иноятов Х. Победа Октябрьской революции в Туркестане. И, Ташкент, 1958. – С.269.
6. Отношение к автономии Туркестана // «Щит народа», №162, 19 декабря 1917 г.
7. Отношение к автономии Туркестана // «Щит народа», №162, 19 декабря 1917 года.
8. Отношение к автономии Туркестана // “Щить народа”. №162, 19 декабря 1917 года.
9. Отношение к автономии Туркестана // “Щить народа”. №162, 19 декабря 1917 года.
10. Отношение к автономии Туркестана // “Щить народа”. №162, 19 декабря 1917 года.